

Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat va uning ahamiyati

Bahromjon Quvondiqov
Navoiy innovatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat kurashining ahamiyati shunchalik yuqoriligi, agar raqobat bo'lmasa, bozor iqtisodiyotini barpo etib bo'lmaydi. Raqobat - bozorning asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonuni ekanligi maqolada muxim o'rinni egallagan.

Kalit so'zlar: raqobat, kurash, o'zaro munosabat, siyosat, standart, bozor, iqtisodiyot, bozor talabi

Competition and its importance in the market economy

Bahromjon Kuvandikov
Navoi University of Innovations

Abstract: The importance of competition in the conditions of the market economy is so high that if there is no competition, the market economy cannot be established. The fact that competition is the main condition of the market, it can be said that it is its law, occupies an important place in the article.

Keywords: competition, struggle, interaction, policy, standard, market, economy, market demand

Raqobat - bu ikki kishi yoki guruhning doimiy raqobatbardosh munosabatlardagi holati. Raqobat - bu raqobatlashayotgan ikki tomon o'rtasidagi "bir-biriga qarshi" munosabati. O'zaro munosabatlarning o'zini "raqobat" deb ham atash mumkin, yoki har bir ishtirokchi bir-biri bilan raqib bo'ladi. Kimningdir asosiy raqibini ashaddiy raqib deb atash mumkin. Raqobatni "Aktyorlar qaysi davlatlar raqobatchilarga yetarlicha tahdid solayotganini aniqlaydigan idrokiy tasniflash jarayoni" deb ta'riflash mumkin. Raqobat bir tomonning doimiy hukmronligiga olib kelmasdan, davom etishi uchun "teng tomonlar o'rtasidagi raqobat munosabatlari" bo'lishi kerak. Siyosatshunos Jon A. Vaskesning ta'kidlashicha, kuchlar tengligi haqiqiy raqobat mavjud bo'lishi uchun zaruriy komponent hisoblanadi, ammo boshqalar bu elementga etiroz bildiradi[4].

Raqobat jamiyatning turli sohalarini uchrab turadi va "inson unosabatlarning barcha darajalarida ko'p". Ko'pincha do'stlar, firmalar, sport jamoalari, maktablar va universitetlar o'rtasida mavjud. Bundan tashqari, "oilalilar, siyosatchilar, siyosiy

partiyalar, etnik guruhlar, mamlakatlar va shtatlarning mintaqaviy bo'limlari har xil uzunlikdagi va intensivlikdagi doimiy raqobatda ishtirok etadilar". Raqobat turli tomonlar o'rtasidagi marosimlar mahsulidan rivojlanadi. Ba'zi hollarda, raqobat "shunchalik kuchli bo'ladiki, aktyorlar faqat o'z harakatlari bilan raqiblariga zarar yetkazishi yoki foyda keltirishi haqida tashvishlanishadi".

Fransiya va Germaniya o'rtasidagi raqobat. Ikki millat davlati bor ekan; Bu yerda, Prussiya Gardes du Korpusining zobitlari urush qo'zg'atmoqchi bo'lib, 1806-yilning kuzida Berlindagi Fransiya elchixonasi zinapoyasida qilichlarini kutarib turishgan.

Raqobat odatda odamlar yoki guruhlar o'rtasidagi raqobatni anglatadi, bu yerda har biri boshqasidan ko'ra ko'proq muvaffaqiyat qozonishga intiladi. Shu bilan bir qatorda fe'l (so'z turkumi) shaklida qo'llanilganda (Amerika ingliz tilida raqobatlashuvchi va raqobatlashuvchi, Britaniya ingliz tilida raqobatlashuvchi va raqobatlashuvchi) tenglik munosabatini ko'rsatishi mumkin. Raqib so'zini kelib chiqishi o'rta fransuz va lotincha rivalis, fransuzcha rivus so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, boshqasi bilan bir xil ariq va daryodan suv ichadigan yoki undan foydalanadigan odamni anglatadi. Bu so'z ingliz tiliga taxminan 1577-yilda kirib kelgan va Uilyam Shekspirning 1623-yilda yozilgan Veronadagi ikki janob kitobida aytib o'tilgan.

Jeyms Mark Bolduin 1902-yilda o'zining "Falsafa va psixologiya lug'ati" da raqobatning uchta asosiy turini aniqlagan.

- biologik raqobat
- shaxsiy yoki ongli raqobat
- savdo va sanoatda raqobat.

Ko'proq zamonaviy tadqiqotlar raqobatni o'rnatish uchun zarur bo'lgan o'xshashlik, yaqinlik va tarixni aniqlaydi, boshqalari esa shafqatsizlik bilan raqib munosabatlarini mustahkamlash uchun raqobat tarixiga bo'lgan ehtiyojni kamaytirishi mumkinligini taxmin qilishdi.

Agar biror shaxs yoki tashkilotning bir nechta raqiblari bo'lsa, eng muhimini ashaddiy raqib deb atash mumkin. Badiiy adabiyotda tez-tez takrorlanib turadigan qahramon sifatida qahramonlar uchun ashaddiy raqib yoki ashaddiy dushman bo'lib xizmat qilishi odatiy holdir. Biroq, ashaddiy raqibni dushmandan ajratish ham mumkin, ikkinchisi esa qahramonning azaliy yoki doimiy dushmani bo'lmasa ham, uni mag'lub qila olmaydigan dushmandir

Ma'lumki, raqobat bozor mexanizmining ajralmas qismi, iqtisodiy sub'ektlarni faollikka undovchi va shu orqali iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi kuchdir. Raqobat ayovsiz kurash bo'lgandan iqtisodiyotning barcha ishtirokchilarini sergak tortishga, jon saqlash uchun tinmay harakat qilishga undaydi. Jamiyatda firmalar tovar ishlab chiqaruvchi bo'lsa, xonadonlar iste'molchilardir. Shu bois ularning maqsadi

farqlanadi shunga binoan ular raqobatlarida turlicha qatnashadilar. Raqobat sharoitida "Harakatda barakat bor" degan qoida amal qiladi. Raqobat xo'jalikning hamma sohalarida borganidan unda barcha iqtisodiy faol kishilar individual yoki firma jamoasiga birlashgan tarzda qatnashadilar.

Raqobat kurashining ahamiyati shunchalik yuqoriki, usiz bozorni tassavur qilib bo'lmaydi. Chunki u bozor iqtisodiyotining mazmuniga aylanib ketgan. Raqobat bo'lmasa, bozor iqtisodiyotini barpo etib bo'lmaydi. Raqobat - bozorning asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonunidir.

Bozor xo'jaligida raqobat kim bo'lishidan qat'iy nazar yaxshi ishlaganlarning yutib chiqishini bildiradi. Shu jihatdan u iqtisodiy resurslarni tejamli ishlatishga, tovar va xizmatlarni ko'plab va sifatli ishlab chiqarishga undaydi. Uning rag'bat kuchi faqat ishlab chiqarishning o'zini o'sishiga undash emas, balki iqtisodiy munosabatlarni ham takomillashuviga moyil etishdir. U xo'jalik yuritishning eng samarali usullarini yuzaga keltiradi, iqtisodiy aloqalarning eng maqulini topishga majbur qiladi.

Raqobat bo'lganda firmalar bozorga o'z raqibinikidan yaxshiroq va arzonroq tovarlarni taklif etishi zarur. Buning uchun firmalar xaridorlarga ma'qul bo'ladigan yangi tovar namunalarini o'zlari yaratadilar yoki o'zgalar yaratgan tovar namunalarini ishlab chiqarish huquqlari sotib oladilar, xarajatni pasaytiradilar. Monopoliyalar narx bilan emas, balki ko'pincha sifat bilan raqobatlashadilar, buning uchun fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etadilar. Masalan, avtomobil kompaniyalar xalqaro avtosalonlarda avtomobillarning super yangi modellarini namoyish etadilar. Ular avtomobil modelini yaratish chog'ida yangi texnikaviy g'oyalarni model konstruksiyasida amalga oshiradilar. Bu shundan darak beradiki, sifat bilan raqobatlashuv fan-texnika taraqqiyotining omiliga aylanadi.

Shuningdek raqobat iqtisodiyot sub'ektlarini qat'iy tabaqalashuviga olib keladi. Bu eng avvalo foyda miqdori, kapital miqdori, qarzni to'lash qobiliyati va nihoyat, ish haqining har xil bo'lishida ko'rinadi. Raqobatda yutib chiqqanlar iqtisodiy jihatdan kuchayib ketsalar yutqazganlar zaiflashadi, hatto xonayvaron bo'lib bankrot holiga tushadilar. Biz bilamizki, bankrot bo'lish bu o'zining majburiyatlari va to'lovlarini bajarishga qodir bo'lmaslikdir. Bankrot bo'lgan firmalar yo'qoladi. Iqtisodiy saralanishning ikki ziddiyatli oqibati bor. Birinchidan, o'z ishini uddalay olmagan firmalarning sinishi, eng ishbilarmonlarni tanlab olib, iqtisodiyotni ularning ishonchli qo'lga berish bo'lsa; ikkinchidan, bu zo'rlari yanada zo'rayib ketishi va monopollashuv tendensiyasini yuzaga keltiradiki, natijada erkin raqobat cheklanib qoladi. Shu boisdan, davlat o'zining antimonopol tadbirlari bilan singan firmalar o'rniga yangilarini paydo bo'lishiga ko'maklashadi, chunki korxonalar ko'p joyda rag'bat qizg'in boradi.

Iqtisodiy sohadagi raqobatning muhimligi shundaki, ishlab chiqarish munosabatlarining subektlari ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar, tadbirkorlar, yollanma ishchilar va boshqalar o'rtasida qulayroq ishlab chiqarish sharoitida arzon ishlab chiqarish resurslari va ishchi kuchiga ega bo'lish, unumliroq texnologiya, ish joyi yaxshi samarali bozorga kira olish imkoniyati uchun olib boriladigan kurashdan iborat.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish mumkinki, raqobat-bozor iqtisodiyoti ishtirokchilarining o'z manfaatlarini yuzaga chiqarish uchun bir-biri bilan bellashuvi, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq nafilikka ega bo'lish uchun kurarishdir. Raqobatning kuchi doimo ortib boradi. Qayerda raqobat munosib o'rin egallasa shu yerda ishlab chiqarish tez rivojlanadi va jamiyat a'zolarining turmush darajasi yuqori bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov.I "Bizning maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Toshkent "O'zbekiston" - 2005
2. D.Tojiboeva "Iqtisodiyot nazariyasi". Toshkent "O'qituvchi" - 2002
3. A.O'lmasov, A.Vahobov "Iqtisodiyot nazariyasi". Toshkent "Iqtisod-Moliya"-2014
4. A.Qodirov 'Iqtisodiyot nazariyasi'. Toshkent-2010
5. Karimkulov, K. M., & Jabborkhonova, N. A. (2023). CLASSIFICATION OF VITAMIN AND MINERAL COMPLEXES ACCORDING TO THE COMMODITY NOMENCLATURE OF FOREIGN ECONOMIC ACTIVITIES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 3(9), 91-96.
6. Karimkulov, K., & Davlatov, O. (2023). MAIN CRITERIA FOR CLASSIFICATION OF MULTI-FUNCTIONAL GOODS ACCORDING TO THE PRODUCT NOMENCLATER OF FEACH ACTIVITIES. Modern Science and Research, 2(9), 278-282.
7. Karimkulov, K., & Jabborkhonova, N. (2023). DETERMINATION OF VITAMINS IN MULTIVITAMIN COMPLEXES USING HIGH PERFORMANCE LIQUID CHROMATOGRAPHY. Current approaches and new research in modern sciences, 2(11), 120-122.
8. Dzhuraev, A. D., Makhsumov, A. G., Zakirov, U. B., Nikbaev, A. T., & Karimkulov, K. (1990). Synthesis and antiinflammatory activity of aminoacetylenic esters of benzoic acids. Pharmaceutical Chemistry Journal, 24(8), 560-562.
9. Karimkulov, K. M., Dzhurayev, A. D., Makhsumov, A. G., & Amanov, N. (1991). Some derivatives of 1, 2, 3-triazoles: Synthesis and study of antimicrobial activity. KHIM.-FARM. ZH., 24(6), 40-42.

10. Karimkulov, K. M., & Askarov, M. A. (2010). Investigation of cotton cellulose and its products using customs chemical appraisal. *International Polymer Science and Technology*, 37(9), 43-45.
11. Israilova, H. M., & Uzoqov, I. E. (2023). Oliy o'quv yurtlarida sog'lom turmush tarzi haqida ta'lim berishning o'ziga xos xususiyatlari. *Science and Education*, 4(11), 224-231.
12. Сарикулов, М. Х., Узаков, И. Э., Ирисов, И. Ш. У., & Сулхонов, Д. А. У. (2023). Калорийность и химический состав куриного яйца. *Science and Education*, 4(6), 46-53.
13. Adilov, T. T., Israilova, X. M., Uzohkov, I. E., Axtamov, M. X., & Raxmatullayeva, X. I. (2021). Food security: National food market.
14. Karimqulov, Q. M., Abduraxmanova, A. J. R., & Uzaqov, I. E. (2023). Oziq-ovqat tovarlarni identifikatsiyalashda yuzaga kelayotgan muammolar. *Science and Education*, 4(6), 518-523.
15. Сарикулов, М. Х., Узаков, И. Э., Куйбаков, Б. Б., & Хунаров, А. М. (2023). Роль воспитания в формировании гармонично развитого поколения. *Science and Education*, 4(6), 554-560.
16. Sarikulov, M. K., Uzohkov, I. E., Riskulov, K. A., & Israilova, K. M. (2022). SOME ASPECTS OF ECOLOGY AT THE PRESENT STAGE. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(6).
17. Uzoqov, I. E., & qizi Ashurova, F. A. (2023). Kontrafakt va falsifikasiya qilingan oziq ovqat mahsulotlarini identifikatsiyalashdagi xorijiy davlatlar tajribalari. *Science and Education*, 4(9), 166-172.